

Chirchiq shahar
6- umumiy o`rta maktabining
boshlang`ich sinf o`qituvchisi
Gulchehra Ergashovanning
Ona tili fanidan 4-sinfda
``Sifat – so`z turkumi``
mavzusida
o`tkazgan noan`anaviy dars
ishlanmasi

Ona tili 4-sinf III-chorak 17dars

Mavzu: Sifat- soʻz turkumi (mustahkamlash)

Taʼlimiy maqsad: Oʻquvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish, erkin fikrlashga oʻrgatish, aqliy faoliyalarini, fanga qiziqishlarini yanada oshirish.

Tarbiyaviy maqsad: Oʻquvchilarni ona tiliga rost goʻy, halol, mehnatsevar, odobli qilib, bir – biriga doʻstona munosabatda, ona tilimiz bilan gʻururlanish hil-xislatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Darsda faollik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Uslub: Interfaol.

Koʻrgazma: Kompyuter, multimediyalar, materiyalar, tarqatma jadval, rasmlar, maket, test savollari.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (Navbatchi hisoboti)

-Qani ayting, bolalar,
Kim navbatchi boʻladi?

Ushbu kunning hisobin

Menga aytib beradi?

Navbatchiʼ: Bugun hafta kunining beshinchisi, fevral oyining 5-sanasi boʻladi. Ollah ushbu kuniga katta nazar solibdi, Yaxshilik farishtasi yer yuzida qolibdi. Barcha ezgu- niyatlar ushbu kunning oʻzida ijobat ham bolibdi. Hozir buyuk mutaffakkir, bobomiz Mir Alisher Navoiy asos solgan ona tili darsi.

Oʻquvchi; Ona tilim, onajonim tili bu,

Beshikdanoq singgan jonu-quloqqa.

Elu- yurtim, xonu-monim tilim bu,

Qadimlikdan oʻxshar ona tuproqqa.

Sen onam tilisan, otam tilisan,

Sen bobom tilisan, asrlar oshgan.

Oh, ona tilginam, muqaddas tilim,
Bunchalar shirinsan, bunchalar so`lim!
-Ha, bolalar, til umr bo`yi o`rganiladigan fan.
Sayqal bergan sayin ochilib, yashnaydigan
san`at durdonasidir. Til – millatning qalbi, ajdodlarimiz
tomonidan yaratilgan bebaho xazinasidir. Shunday ekan,
bugungi darsimizni boshlab, olgan bilimlarimizni sinab
ko`ramiz. Marhamat, boshladik.(Slayd)


Guruhlarga bo`linadilar. Dars 6 bosqichdan iborat.

1) "Aqllilar" – "Biz bilim cho`qqisini aql bilan olamiz,
kelajakda albatta orzuyimizga yetamiz.

2) "Bilimdonlar" - Bilmaganni so`rab o`rgangan olim,
Orlanib so`ramagan o`ziga zolim.

3) „Donolar“ - Oz-oz o`rganib, dono bo`lur, qatra- qatra
yeg`ilib daryo bo`lur (Slayd)

Alisher Navoiy haqida suhbat o`tkazish



4) „Zukkolar“ - Zukkolik fazilati - bola ziynati.

5) „Lochin“ - Ziyrak lochin qoqilmas,
qoqilsa ham yiqilmas.

1-bosqich: „Ona tilim –jonu dilim” „Aqliy hujum”

- 1) O`zbek tiliga qachon davlat tili maqomi berilgan?
- 2) Til haqida qanday maqol bilasiz?
- 3) Buyuk mutaffakir A.Navoiy tavalludining necha yilligini nishonlaymiz? O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida til haqida ko`rsatilgan?

2-bosqich: „Meni top” (Tarqatma kartochkalardan foydalanadi)

- 1) Uzun xartumli va kuchli – Fil.
- 2) Kichkina va jingalak yungli – Qo`zichoq.
- 3) Usti tosh, o`rtasida chanoq bosh- Toshbaqa.
- 4) Tikonli, kichkina – Tipratikan.
- 5) Sudraluvchi, zaharli- Ilon.

Ko`chada yomg`ir yog`di. 3ta qush qanday daraxtga qo`nadi? (Xo`l daraxtga qo`nadi.)

3-bosqich: „Kitob bilan ishlash”

275-mashq.

Maqollarni o`qish, ma`nosini tushuntirib beradilar, sifatlarning otga bog`lanishini chizmada ifodalaydilar (kartochkalar yordamida bajariladi)
276-mashq, So`roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, gapdagi vazifasi aytiladi. (Ekranda)

4- bosqich: ``Meni tushun ``

- 1- Rasm asosida harakat qilib, hikoya tuzish.
- 2- Test savoliga javob topish.
- 3- Berilgan otga mos sifat topish.
- 4- Sifatlarning ma`nosini taqqoslash (Kartochka)
- 5- Birikmalarni o`rniga qo`yib, maqol tuzish (Tarqatma)

5- bosqich. Mustahkamlash.

Har bir o`quvchiga ALIFBOdagi harflar tarqatiladi. Ular shu harf bilan boshlanuvchi sifatlarni (shaxs va narsaning rangi, maza-ta`mi, shakli, hajmi,xil-xususiylatlari) va qaysi turga tegishli ekanini yozadilar.

(Bu vaqtda bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchi lar bilan yakka tartibda ish olib boriladi.)

6- bosqich: Taqdimot.

Bir tomoni keng o`tloq,

Bir tomoni qorli tog`.

Go`zal va nurli makon,

Mening aziz Vatanim.

- Ona Vatan - hikoya tuzish,

Sifatlarni topish (keng, qorli, go`zal, nurli, aziz)

-Boshqotirmadan foydalanish.

Gorizontal

1.Bor rang-barang to`rt gilam,

Xizmatga shay to`rti ham.

Navbat bilan to`shalar,

Qani kim topa olar? (Fasl)

2.Yangi yilda u mehmon,

Bolalarga qadrdon. (Qorbobo)

3. Ayoz bobo novvot sotdi,

Olgan edim qo`lim qotdi.(Muz)

4. Ko`kda supra ochildi,

Uni yerga sochildi. (Qor)

5. Ko`zga ko`rinmay yuzni chimchilar.

(Sovuq)

1	5					
2						
3						
	4					

-Bugungi dars sizga yoqdimi?

-Nimasi yoqdi?

-Nimada qiynaladingiz?

-Yana shunday mashg`ulot o`tkazsak,
nimalarga e'tibor berasiz?

Uyga vazifa: 277- mashq.

